



TALABALARNING BILIM OLIISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Saidov Jasur Doniyor o'g'li

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Irsaliyev Furqat Sherali o'g'li

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Temirxolova Baxtigul G'ofur qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Ismoilova Chaman Davron qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10718446>

ARTICLE INFO

Received: 20th February 2024

Accepted: 24th February 2024

Published: 26th February 2024

KEYWORDS

Qiziqtiruvchi topshiriqlar, ta'lim

vositalari, aralash topshiriqlar,

Elektron ta'lim vositalari,

Ispring, MyTest.

ABSTRACT

Ushbu maqolada talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularning egallagan bilimlarini mustaxkamlash muammolari o'rganilib ularni aralash turdagi topshiriqlar tayyorlash orqali bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan.

Talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari va uni rivojlantirish masalalari bugungi kunda dolzarb masaladir. Talabalar o'zlarining ilmiy va amaliy qiziqishlarini oshirish va ularni o'rganishni rag'batlantirish uchun murakkab va motivatsiyali o'quv muhitiga ega bo'lishlari lozim. Masalan o'quv jarayonida talabalarga nazariy bilimni amaliyotga o'tkazish, masalan, laboratoriyalarda, kasb-hunar maktablarida yoki mashqlarda amaliy ishlarni o'rganish imkoniyatini berish. Talabalarning o'zlarini qiziqtiradigan va motivatsiyalaydigan ilmiy tadqiqotlar qilishlari uchun o'quv muhitini tashkil etish. Bu loyihalar yoshlarning kichik ma'lumotlarini kengaytirishi, o'rganishni rag'batlantirishi va ularga ilmiy yo'nalishda oz sonli ishlar qilish imkonini berishi mumkin. Talabalar o'zlarining bilim darajasini oshirish uchun mahalliy va xalqaro darajadagi tanlovlarda qatnashishlari mumkin. Bu ularda o'zlarini boshqalar bilan solishtirish, o'zlarining bilim darajasini mustahkamlash va yangi bilimlar olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu qiziqishlarni o'rganish va bilim olishga qiziqishni rivojlantirish talabalarga motivatsiya berish uchun yaxshi vositalardir.

Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borishda talabalarning qiziqishini oshirish juda ko'plab interfaol metodlar va vositalar ishlab chiqilga, ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Talabalarning bilimlarini sinash va baxolash jarayoni nafaqat bilim olish jarayonini monitoring qilish balki ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ham muhimdir. Shu sababli nazorat va bilimlarni sinash topshiriqlarini tayyorlashda interfaollikka, o'yinli metodlarga, boshqotirmalarga va aralash shakilda tayyorlashga ahamiyat berish lozim. Shular asosida biz malumotlar bazasi fani doirasida aralash topshiriqlar tayyorlab aralash

topshiriqlar to'plamini yaratish. Ularning boshqa turdagi topshiriqlardan avzalligi samaradorligi ko'rsatilgan.

Elektron ta'lim vositalari – bu ta'lim jarayonini tashkil qilishda foydalaniladigan barcha elektron vositalar majmuidir.

Bilimlarni sinash va mustaxkamlash jarayonida elektron nazorat vositalari turli tuman namunalari ishlab chiqilgan. Bularga misol tariqasida testlar, har hil o'yinli dasturlar, interaktiv topshiriqlar va boshqalarni keltirish mumkin. Bunday elektron vositalarni yaratuvchi zamonaviy dasturlar sirasiga Ispring, MyTest dasturlarini keltirishimiz mumkin. Ispring dasturida turli shakldagi 11 hil turdagi topshiriqlarni tayyorlash mumkin. Aralash topshiriqlarning bir turdagi topshiriqlardan avzalligi shundaki bir turdagi topshiriqlar kop sonli bajarilsa zerikish yoki charchash hollari yuzaga kelishi mumkin. Aralash turdagi topshiriqlar harsafar turli topshiriqlarga tayyor turish, ijodiy fikrlash va turli vaziyatlarga tayyor bo'lish kabi qobiliyatlarni shakillantiradi.

Ispring dasturida tayyorlangan aralash topshiriqlarning avzalliklari

1. Bir topshiriqlar to'plamda turli topshiriqlardan ixtiyoriy tartibda foydalanish.
2. Tayyorlangan topshiriqlarda turli matnli, video, audio va grafik ma'lumotlar asosida tayyorlash imkoniyati mavjudligi.
3. Matematik formulalar va masalalarni joylashtirish imkoniyati borligi.
4. Talabalarning mantiqiy fikrlashi qobiliyatini turli topshiriqlarni bajarishi orqali rivojlantirishi.
5. Talabalarning topshiriqlarga ijodiy yondashishini o'stirishi.
6. Dastur interfeysining qulayligi.
7. Ommaviyligi va har bir foydalanuvchi foydalana olishi.

Va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Topshiriqlarimizning birinchi qismida berilgan savolga ha yoki yo'q javoblarining birini tanlagan holda javob beriladi. Bu bilan savol bo'yicha talaba o'zining yagona yondashuvini ko'rsatadi. Ikkinchi topshirig'imizda talaba uch varyatli test topshirig'ini bajaradi. Bunda test savoli murakkablik darajasi o'rtacha bo'lgan savoldan foydalandik. Uchinchi bosqichda talaba bir nechta variantli savol bilan ishlaydi bunda javob ulardan bittasi yoki bir nmechtasi bo'lishi ham mumkin yoki barchasi bu talabaning mulohaza qilishiga sabab bo'ladi. Keyingi bosqichda talaba turli mulohazalarning o'zaro moslarini birlashtirish bilan topshiriqni bajaradi.

Bunday xilma hil topshiriqlarni bajarish talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirib gina qolmasdan ularning intellektual qobiliyatlarishi shakillantirishga ham mizmat qiladi. Harsafar turli topshiriqlar bilan to'qnash kelishi ularning vaziyatga to'g'ri baho berishi, murakkab vaziyatlardan chiqishlari uchun to'g'ri yol topa bilishlarini shakillantiradi. Bu qobiliyat hamma qatori ma'lumotlar bazalari bo'yicha mutaxasislarga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir.

An'anaviy bir turdagi elektron topshiriqlarning talabalar psixologik jarayonida qanday tasir o'tkazishi ularning bilimlarni mustaxkamlash jarayonidagi samaradorligi o'rganildi. Bundan tashqari aralash turdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning psixologik emotsiyasi va fanga bo'lgan qiziqishining oshishi kuzatildi. Bu turdagi topshiriqlarni barcha

fanlarga keng tadbiiq etish o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatishi bilan boshqa bir turdagi topshiriqlarni qo'llashdan ko'ra avzalloqligi kuzatildi. Mavzuga oid adabiyotlar taxlil qilinib ulardagi olimlarning mavzu bo'yicha bildirgan fikrlari o'rganildi. Sohaga oid qonun hujjatlari taxlil qilindi. Shularga asosan quyidagilarni tavsiya qilamiz:

-talabalarning bilimlarini sinash va mustaxkamlash jarayoni bilimlarni nazorat qilishdan ajralib turadi zero bunda talaba avvalo o'ziga holis baho bermog'i lozim. Shunga asosan bilimlarni sinash va mustaxkamlash jarayonida ko'proq ko'rgazmaliy va virtual topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi;

-tayyorlanayotgan har bir topshiriq avvalo ma'lum darajada mantiqiy fikrlashga va mulohaza qilishga majbur qilishi lozim. Bu bilan avvalo talabalarning mantiqiy fikrlashi o'sishiga erishiladi;

-savollarning hilma hilligiga va tuzilishidan takrorlanmasligiga e'tibor qaratish lozim. Har safar butunlay boshqa turdagi savollar kelishi talabaning qiziqishini yanada oshirib turli vaziyatlarga tayyor turishini tgalab qiladi.

Zamonaviy dasturlarning qay biridan foydalanish foydalanuvchining o'ziga bog'liq ammo kerakli maqsadga erishilsa bo'ldi. Ushbu ish yuzasidan tadqiqotlar davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Jasur Doniyor, O. G., Saidov, L., Allayorov, S. P., OMBORINI, S., & BAHOLASH, Y. M. Scientific progress. 2021.No 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yarati-sh-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06.2022).
2. Toshtemirov, D., Muminov, B., & Saidov, J. (2020). Fundamentals of compilation of electronic tasks for students to test and strengthen their knowledge of database. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(4), 3226-3228.
3. Toshtemirov, D. E., Saidov, J. D., & Mamatqulov, S. X. (2019). Technology of creating modern electronic educational resources. Bulletin of Gulistan State University, 2019(1), 67-71.
4. Saidov, J. D., Qudratov, A. N., Islikov, S. X., Normatova, M. N., & Monasipova, R. F. (2023). Problems of Competency Approach in Developing Students' Creativity Qualities for Creating a Database. Journal of Higher Education Theory & Practice, 23(1).
5. Saidov, J. D. (2021). Study of the process of database and creation in higher education. In International scientific and practice conference on "International experience in increasing the effectiveness of distance education: problems and solutions". Guliston.
6. Саидов, Ж. Д. Ў. (2022). КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД ПРИ ОБУЧЕНИИ РАБОТЕ С БАЗАМИ ДАННЫХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. Проблемы современного образования, (6), 253-265.
7. O'G'li, S. J. D. (2022). TA'LIM OLUVCHILARNING MA'LUMOTLAR BAZASI FANIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI KOMPETENSIYALIY YONDASHUVLAR ASOSIDA OSHIRISH MUAMMOLARI. Science and innovation, 1(B3), 89-93.
8. Ergashev, B. B., Saidov, J. D. O., & Islikov, S. X. (2021). BO'LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI VA METODLARI. Academic research in educational sciences, 2(2), 1139-1146.

9. Saidov, J. D. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021.
10. Гаимназаров, О., Агафонов, А., & Саидов, Ж. (2023). СОВРЕМЕННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6), 94-99.
11. Saidov, J. D., Qudratov, A. N., Islikov, S. X., Normatova, M. N., & Monasipova, R. F. (2023). Problems of Competency Approach in Developing Students' Creativity Qualities for.
12. Islikov, S., Saidov, J., & Xolmuminov, D. (2023). MUSTAQIL TA'LIMNI SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI ASOSIDA TASHKIL QILISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 172-174.
13. Saidov, J. D. O. G. L., Allayorov, S. P., & Islikov, S. X. (2021). MA'LUMOTLAR OMBORINI YARATISH BO 'YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASH MEZONLARI. Scientific progress, 2(1), 1804-1807.
14. Jasur Doniyor, O. G., Saidov, L., Allayorov, S. P., OMBORINI, S. X. I. M. L., & BAHOLASH, Y. B. Y. K. K. MEZONLARI//Scientific progress. 2021. № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yarati-sh-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06. 2022).
15. Irsaliyeva , S. ., Irsaliyev , F. ., & Mavlonov , S. . (2024). FIZIKADAN NOSTANDART NAMOIYISH TAJRIBALARINI BAJARISHDA O'QUVCHI KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(2), 84–89. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/28109>

INNOVATIVE
ACADEMY